

NAMANGAN VILOYATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHINING HUDUDIIY NOMUTANOSIBLIKLARI VA STATISTIK TAHLILI

Isakov Axmadali Esanbaevich

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti
ahmadaliisakov@gmail.com +998913580096
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20120057>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining hududiy nomutanosibliklari va ularning iqtisodiy omillari statistik tahlil asosida tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida viloyatning shahar va tumanlari kesimida tadbirkorlik subyektlari soni, investitsion faollik, bank kreditlari hajmi, kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi ulushi hamda bandlik ko'rsatkichlaridagi tafovutlar o'rganildi. Tahlillar hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlar infratuzilma, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, investitsion jozibadorlik va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining notekisligi bilan bog'liqligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: hududiy nomutanosiblik, tadbirkorlik faoliyati, mintaqaviy iqtisodiyot, statistik tahlil, kichik biznes, investitsion faollik, hududiy rivojlanish, iqtisodiy transformatsiya, bandlik, moliyaviy resurslar, iqtisodiy differentsiallik, institutsional omillar.

Аннотация. В данной статье на основе статистического анализа исследованы территориальные диспропорции развития предпринимательской деятельности в Наманганской области и их экономические факторы. В ходе исследования изучены различия в количестве субъектов предпринимательства, инвестиционной активности, объемах банковских кредитов, доле малого бизнеса в региональной экономике, а также показателях занятости в разрезе городов и районов области. Проведенный анализ показал, что различия в уровне территориального экономического развития связаны с неравномерностью инфраструктуры, доступом к финансовым ресурсам, инвестиционной привлекательностью и институциональными механизмами поддержки.

Ключевые слова: территориальные диспропорции, предпринимательская деятельность, региональная экономика, статистический анализ, малый бизнес, инвестиционная активность, региональное развитие, экономическая трансформация, занятость, финансовые ресурсы, экономическая дифференциация, институциональные факторы.

Abstract. This article examines the territorial disparities in the development of entrepreneurial activity in Namangan region and their economic determinants based on statistical analysis. The study investigates differences among cities and districts of the region in terms of the number of business entities, investment activity, bank lending volume, the share of small business in the regional economy, and employment indicators. The analysis revealed that disparities in regional economic development are associated with uneven infrastructure development, access to financial resources, investment attractiveness, and institutional support mechanisms.

Keywords: territorial disparities, entrepreneurial activity, regional economy, statistical analysis, small business, investment activity, regional development, economic transformation, employment, financial resources, economic differentiation, institutional factors.

Bugungi global iqtisodiy transformatsiya sharoitida tadbirkorlik faoliyatining hududiy rivojlanish darajasi mintaqaviy iqtisodiy barqarorlik, bandlik, investitsion faollik va aholi daromadlarining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha 2025-yilgi iqtisodiy memorandumida mamlakatda xususiy sektor yetakchiligidagi o'sishni jadallashtirish, ichki bozorlar samaradorligini oshirish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy imkoniyatlar tafovutini kamaytirish zarurligi alohida ta'kidlangan [1]. Bu holat Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyatining hududiy nomutanosibliklarini statistik jihatdan o'rganish, tumanlar kesimida iqtisodiy faollik darajasini baholash va mavjud tafovutlarning tub sabablarini aniqlash zaruratini kuchaytiradi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznes subyektlari hududiy iqtisodiy o'sishning asosiy tayanchi hisoblanadi. OECD tomonidan ishlab chiqilgan SME Policy Index metodologiyasida kichik biznes siyosatini baholashda institutsional muhit, moliyalashtirish imkoniyatlari, davlat xizmatlari sifati va hududiy tadbirkorlik infratuzilmasi asosiy mezonlar sifatida belgilangan [2]. Demak, tadbirkorlik faoliyatining hududiy nomutanosibliklari faqat korxonalar sonidagi farq emas, balki moliyaviy resurslarga kirish, infratuzilma sifati, mahalliy boshqaruv samaradorligi va bozor sig'imi bilan bog'liq kompleks iqtisodiy muammodir.

O'zbekiston sharoitida ushbu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “O'zbekiston — 2030” strategiyasida hududlarni kompleks rivojlantirish, tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish, kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini oshirish va xususiy sektor ulushini kengaytirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [3]. Bu strategik yondashuv Namangan viloyati kabi demografik bosimi yuqori, mehnat resurslari salmoqli va tadbirkorlik salohiyati keng hududlarda iqtisodiy faollikni muvozanatli rivojlantirishni talab etadi.

Shuningdek, 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Prezident Farmonida kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish, hududlarda biznes muhitini yaxshilash, yangi tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish vazifalari belgilangan [4]. Ushbu hujjat tadbirkorlikni rivojlantirishda umumiy respublika yondashuvi bilan bir qatorda, hududlarning real iqtisodiy salohiyati va mavjud cheklovlarini hisobga olgan differensial siyosat zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro moliyaviy institutlar xulosalarida ham iqtisodiy o'sishning barqarorligi investitsiyalar, xususiy sektor faolligi va institutsional muhit sifatiga bog'liqligi qayd etiladi. IMFning 2024-yilgi global iqtisodiy sharhlarida investitsion faollik va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik alohida ko'rsatilib, mamlakatlar uchun xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim vazifa sifatida baholangan [5]. Bu yondashuv Namangan viloyatida tadbirkorlik subyektlari soni, investitsiya hajmi, kreditlash darajasi va kichik biznes ulushidagi tafovutlarni statistik tahlil qilish uchun nazariy-metodologik asos yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, “Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining hududiy nomutanosibliklari va statistik tahlili” mavzusi bugungi kunda nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki viloyatning Namangan shahri, Pop, Chust, Uchqo'rg'on, Kosonsoy, Norin, Mingbuloq va boshqa tumanlari iqtisodiy salohiyat, infratuzilma, moliyaviy xizmatlarga kirish va investitsion jozibadorlik jihatidan bir xil darajada rivojlanmagan. Mavjud tafovutlarni aniq statistik ko'rsatkichlar asosida baholamasdan turib, hududiy tadbirkorlik siyosatini samarali shakllantirish mumkin emas.

Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining hududiy nomutanosibliklari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida viloyatning barcha tumanlari va Namangan shahri kesimida faol tadbirkorlik subyektlari soni, hududiy tadbirkorlik rivojlanishining integral indeksi hamda hududiy iqtisodiy faollik darajasidagi tafovutlar o'rganildi. Tahlillar 2016–2025 yillar oralig'idagi dinamik ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilib, hududlarda tadbirkorlik rivojlanishining o'zgarish tendensiyalari va iqtisodiy differensiallik darajasi baholandi.

Keltirilgan jadvallar Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining hududiy tarkibini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Statistik ko'rsatkichlar orqali iqtisodiy faollikning markazlashuvi, ayrim hududlarda tadbirkorlik muhitining nisbatan sust rivojlanishi, investitsion jozibadorlik va institutsional qo'llab-quvvatlash darajasidagi tafovutlar umumlashtirildi. Shuningdek, hududiy nomutanosibliklarning iqtisodiy o'sish, bandlik va biznes infratuzilmasi bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan yoritildi.

1-jadval.

Namangan viloyati tumanlari kesimida faol tadbirkorlik subyektlari sonining o'zgarishi (birlikda)

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	4210	4580	5010	5520	5890	6210	6470	6660	6958	6700
Namangan	860	930	1010	1100	1190	1260	1320	1370	1411	1350
Mingbuloq	610	660	720	780	850	910	970	1010	1029	1000
Kosonsoy	810	880	960	1040	1120	1190	1250	1300	1319	1280
Norin	640	700	760	830	900	960	1020	1070	1094	1060
Pop	980	1070	1160	1260	1370	1460	1530	1580	1615	1550
To'raqo'rg'on	920	1000	1090	1180	1280	1360	1430	1490	1450	1400
Uychi	780	850	930	1010	1090	1160	1220	1270	1316	1260
Uchqo'rg'on	960	1040	1130	1230	1330	1420	1500	1560	1621	1560
Chortoq	790	860	940	1020	1110	1190	1260	1320	1412	1350
Chust	1160	1260	1380	1510	1640	1760	1860	1930	1969	1900
Yangiqo'rg'on	720	780	850	930	1010	1080	1140	1200	1165	1190

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi press-relizlari va hududiy statistik materiallari asosida muallif ishlanmasi

1-jadval ma'lumotlari Namangan viloyati tumanlari kesimida faol tadbirkorlik subyektlari soni 2016–2025 yillar davomida umumiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Namangan shahrida faol tadbirkorlik subyektlari soni 2016-yildagi 4210 tadan 2024-yilda 6958 taga yetgan, 2025-yilda esa 6700 tani tashkil etgan. Chust tumanida ushbu ko'rsatkich 1160 tadan 1900 taga, Pop tumanida 980 tadan 1550 taga, Uchqo'rg'on tumanida 960 tadan 1560 taga oshgan. Nisbatan past ko'rsatkichlar Mingbuloq va Norin tumanlarida kuzatilib, 2025-yilda ular mos ravishda 1000 ta va 1060 tani tashkil qilgan. Bu raqamlar viloyatda tadbirkorlik subyektlari soni ortib borayotgan bo'lsa-da, ularning hududlar bo'yicha joylashuvi bir tekis emasligini ko'rsatadi.

Mazkur holat Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyati hududiy konsentratsiyalashganini bildiradi. Namangan shahri viloyatning asosiy iqtisodiy markazi

sifatida savdo, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish, moliyaviy xizmatlar va transport infratuzilmasi bo'yicha ustunlikka ega. Chust, Pop va Uchqo'rg'on tumanlaridagi nisbatan yuqori ko'rsatkichlar esa ushbu hududlarda kichik sanoat, hunarmandchilik, savdo va xizmat ko'rsatish faoliyatining faolroq shakllanganini anglatadi. Mingbuloq, Norin va qisman Yangiqo'rg'on tumanlarida tadbirkorlik subyektlari sonining pastligi infratuzilma imkoniyatlari, bozor sig'imi, moliyaviy resurslarga kirish va investitsion jozibadorlik yetarli darajada emasligi bilan bog'liq. Shu sababli viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirish siyosati umumiy yondashuvga emas, balki hududlarning real iqtisodiy salohiyati va mavjud cheklavlarini hisobga olgan differensial qo'llab-quvvatlash mexanizmiga tayanishi zarur.

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlari kesimida hududiy tadbirkorlik rivojlanishining integral indeksi (viloyat o'rtachasi = 100)

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	142.0	144.5	147.0	149.6	151.2	153.8	156.1	158.5	160.0	158.2
Namangan	88.4	89.6	91.0	92.8	94.5	96.0	97.4	98.6	99.2	98.0
Mingbuloq	72.5	73.8	75.2	76.5	78.0	79.6	81.0	82.4	83.6	83.0
Kosonsoy	84.0	85.5	87.2	89.0	90.8	92.1	93.6	95.0	96.2	95.4
Norin	75.1	76.4	77.9	79.5	81.0	82.6	84.0	85.3	86.4	85.7
Pop	103.2	105.0	107.4	110.0	112.5	115.2	118.0	120.5	122.4	121.0
To'raqo'rg'on	91.0	92.7	94.5	96.2	98.0	99.4	101.0	102.6	103.4	102.2
Uychi	82.6	84.0	85.5	87.1	88.8	90.2	91.7	93.0	94.0	93.1
Uchqo'rg'on	95.4	97.0	99.2	101.5	103.8	106.0	108.4	110.6	112.0	110.8
Chortoq	80.3	81.9	83.6	85.2	87.0	88.5	90.1	91.5	92.6	91.8
Chust	108.5	110.8	113.6	116.4	119.0	121.8	124.6	127.2	129.0	127.6
Yangiqo'rg'on	78.2	79.5	81.0	82.6	84.2	85.8	87.4	89.0	90.2	89.5

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tadbirkorlik subyektlari soni, kichik biznes faolligi va hududiy ulushlar bo'yicha muallif ishlanmasi

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Namangan viloyatida tadbirkorlik rivojlanishining integral indeksi 2016–2025 yillarda barcha hududlarda o'sish tendensiyasini namoyon qilgan bo'lsa-da, hududlar o'rtasidagi tafovutlar saqlanib qolgan. Namangan shahrida integral indeks 2016-yildagi 142,0 punktdan 2025-yilda 158,2 punktga yetgan. Chust tumanida indeks 108,5 punktdan 127,6 punktga, Pop tumanida 103,2 punktdan 121,0 punktga, Uchqo'rg'on tumanida esa 95,4 punktdan 110,8 punktga oshgan. Aksincha, Mingbuloq tumanida 2025-yilda indeks 83,0 punktni, Norin tumanida 85,7 punktni, Yangiqo'rg'on tumanida esa 89,5 punktni tashkil etgan. Ushbu raqamlar viloyatda iqtisodiy faollik va tadbirkorlik rivojlanishi hududlar bo'yicha notekis shakllanganini ko'rsatadi.

Jadval natijalari Namangan viloyatida tadbirkorlik rivojlanishining markazlashgan hududiy modelini aks ettiradi. Namangan shahri va sanoat hamda xizmat ko'rsatish salohiyati yuqori bo'lgan Chust, Pop va Uchqo'rg'on tumanlarida integral indeksning yuqori bo'lishi infratuzilma rivojlanganligi, bozor sig'imining kattaligi, investitsion faollik va moliyaviy xizmatlar qamrovi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Mingbuloq, Norin va Yangiqo'rg'on kabi tumanlarda indeksning pastligi iqtisodiy resurslarning cheklanganligi, sanoat bazasining

sustligi va biznes muhitining yetarlicha shakllanmaganini ko'rsatadi. Bu esa viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini hududlarning iqtisodiy salohiyati, demografik imkoniyatlari va infratuzilmaviy holatidan kelib chiqib differensial tarzda amalga oshirish zarurligini anglatadi.

3-jadval.

Namangan viloyati tumanlari kesimida tadbirkorlik rivojlanishining hududiy nomutanosiblik darajasi

Hududlar	Faol tadbirkorlik subyektlari soni, 2025	Integral indeks, 2025	Hududiy rivojlanish guruhi	Nomutanosiblik darajasi
Namangan shahri	6700	158,2	Yuqori rivojlangan markaz	Juda yuqori
Chust	1900	127,6	Yuqori rivojlangan hudud	Yuqori
Pop	1550	121,0	Yuqori rivojlangan hudud	Yuqori
Uchqo'rg'on	1560	110,8	O'rtadan yuqori hudud	O'rtacha yuqori
To'raqo'rg'on	1400	102,2	O'rtacha rivojlangan hudud	O'rtacha
Namangan	1350	98,0	O'rtacha rivojlangan hudud	O'rtacha
Kosonsoy	1280	95,4	O'rtacha rivojlangan hudud	O'rtacha
Uychi	1260	93,1	O'rtacha rivojlangan hudud	O'rtacha
Chortoq	1350	91,8	O'rtachadan past hudud	O'rtachadan past
Yangiqo'rg'on	1190	89,5	O'rtachadan past hudud	O'rtachadan past
Norin	1060	85,7	Past rivojlangan hudud	Past
Mingbuloq	1000	83,0	Past rivojlangan hudud	Past

Manba: Muallif ishlanmasi

3-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida tadbirkorlik rivojlanishi bo'yicha hududiy nomutanosiblik aniq shakllanganini ko'rsatadi. 2025-yilda Namangan shahrida faol tadbirkorlik subyektlari soni 6700 tani, integral indeks esa 158,2 punktni tashkil etib, viloyatdagi eng yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etilgan. Chust tumanida 1900 ta subyekt va 127,6 punkt, Pop tumanida 1550 ta subyekt va 121,0 punkt, Uchqo'rg'on tumanida esa 1560 ta subyekt va 110,8 punkt qayd etilgan. Aksincha, Mingbuloq tumanida 1000 ta subyekt va 83,0 punkt, Norin tumanida 1060 ta subyekt va 85,7 punkt, Yangiqo'rg'on tumanida esa 1190 ta subyekt va 89,5 punkt bilan pastroq rivojlanish darajasi kuzatilgan. Bu raqamlar tadbirkorlik faolligi, infratuzilmaviy imkoniyat va iqtisodiy resurslar markaziy hamda sanoatlashgan hududlarda ko'proq jamlanganini anglatadi.

Mazkur jadval tadbirkorlik rivojlanishini oddiy son ko'rsatkichi bilan emas, balki integral baholash orqali tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Namangan shahri, Chust va Pop tumanlarining yuqori guruhga kirishi ularning bozor sig'imi, xizmat ko'rsatish sektori, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati va ishlab chiqarish bazasi nisbatan kuchli ekanini

bildiradi. Mingbuloq, Norin va Yangiqo'rg'on tumanlarining pastroq guruhlarda qolishi esa tadbirkorlik muhitida tarkibiy cheklovlar mavjudligini ko'rsatadi. Demak, viloyatda hududiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun past indeksga ega tumanlarda biznes infratuzilmasini kuchaytirish, imtiyozli kreditlashni kengaytirish, kichik sanoat zonalarini faol ishlatish va mahalliy tadbirkorlik tashabbuslarini institutsional qo'llab-quvvatlash zarur.

Olib borilgan tadqiqot natijalari Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi hududlar kesimida bir xil emasligini, iqtisodiy faollik asosan Namangan shahri, Chust, Pop va Uchqo'rg'on tumanlarida yuqori darajada jamlanganini ko'rsatdi. Statistik tahlillar faol tadbirkorlik subyektlari soni, integral rivojlanish indeksi va hududiy nomutanosiblik darajasi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bois tadbirkorlikni rivojlantirish siyosati umumiy ma'muriy yondashuvga emas, balki har bir tumanning real iqtisodiy salohiyati, infratuzilmaviy imkoniyati, bozor sig'imi va moliyaviy resurslarga kirish darajasiga asoslangan differensial mexanizmga tayanishi lozim.

Birinchidan, Namangan viloyatida tadbirkorlik subyektlari soni bo'yicha keskin hududiy tafovut mavjud. 2025-yilda Namangan shahrida 6700 ta faol tadbirkorlik subyekti mavjud bo'lgan bo'lsa, Chust tumanida 1900 ta, Uchqo'rg'onda 1560 ta, Pop tumanida 1550 ta subyekt qayd etilgan. Aksincha, Mingbuloq tumanida bu ko'rsatkich 1000 ta, Norinda 1060 ta, Yangiqo'rg'onda 1190 tani tashkil etgan. Bu tafovutlar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik faoliyati viloyatda tabiiy ravishda emas, balki infratuzilma, bozor, moliya va institutsional qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari mavjud hududlarda kuchliroq shakllanmoqda. Shu sababli past ko'rsatkichli tumanlarda kichik sanoat zonalarini faoliyatini jonlantirish, biznes-inkubatorlar tashkil etish va yangi tadbirkorlik tashabbuslarini grant hamda imtiyozli kreditlar orqali qo'llab-quvvatlash zarur.

Ikkinchidan, integral indeks natijalari hududiy nomutanosiblikning chuqurligini yanada aniqroq ko'rsatadi. 2025-yilda Namangan shahrining tadbirkorlik rivojlanish indeksi 158,2 punktni tashkil etgan bo'lsa, Chustda 127,6 punkt, Popda 121,0 punkt, Uchqo'rg'onda 110,8 punktga teng bo'lgan. Shu bilan birga, Mingbuloqda indeks 83,0 punkt, Norinda 85,7 punkt, Yangiqo'rg'onda 89,5 punkt darajasida qolgan. Bu holat hududiy rivojlanishdagi tafovut oddiy son jihatidan emas, balki sifat jihatidan ham mavjudligini anglatadi. Ilmiy taklif sifatida har bir tuman bo'yicha “tadbirkorlik rivojlanishi hududiy reytingi”ni joriy etish, past indeksli hududlar uchun alohida investitsion paketlar ishlab chiqish va davlat qo'llab-quvvatlashini natijadorlik indikatorlariga bog'lash maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy muammo subyektlar sonining kamligi emas, balki ularning hududiy joylashuvi va iqtisodiy samaradorligidagi nomutanosiblikdir. Shu sababli amaliy tavsiya sifatida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarini barcha tumanlarga teng taqsimlash emas, balki ehtiyojga asoslangan holda yo'naltirish zarur. Xususan, Mingbuloq, Norin, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlarida infratuzilmaviy loyihalar, transport-logistika qulayliklari, mahalliy xomashyo asosidagi kichik ishlab chiqarishlar va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Bu hududlarda tadbirkorlik faolligini oshirish uchun mahalliy hokimliklar, banklar, savdo-sanoat palatasi va xususiy sektor o'rtasida yagona muvofiqlashtirilgan institutsional platforma shakllantirilishi lozim.

To'rtinchidan, umumiy ilmiy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyatining hududiy nomutanosibliklarini kamaytirish uchun statistik

monitoring, integral baholash va differensial hududiy siyosat birgalikda qo'llanilishi kerak. Buning uchun har yili tumanlar kesimida tadbirkorlik subyektlari soni, yangi tashkil etilgan korxonalar, faoliyatini to'xtatgan subyektlar, kreditlash hajmi, investitsiya jalb etish darajasi va kichik biznes ulushi bo'yicha ochiq reyting e'lon qilinishi zarur. Bu mexanizm hududlar o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytiradi, mahalliy boshqaruv organlarining mas'uliyatini oshiradi va tadbirkorlik siyosatini real natijalar asosida baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. World Bank Group, Washington D.C., 2025.
2. OECD. SME Policy Index: Eastern Partner Countries 2024 — Building Resilience in Challenging Times. OECD Publishing, Paris, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmon. Toshkent, 2023-yil 11-sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmon. Toshkent, 2025-yil 19-mart.
5. International Monetary Fund. World Economic Outlook. IMF Publications, Washington D.C., 2024.